

“SHAYBONIYXON” XALQ DOSTONI

Shoxrux Soliyev Xolmuxammat o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Email: shohruhsoliyev725@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbek xalq og‘zaki ijodida “Shayboniyxon” tarixiy dostoni, dostonning tariximizdagi o‘rnini, ilmiy izlanish olib borgan olimlarni qarashlari hamda Shayboniyxon obrazni tasviri berilgan.

Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, “Shayboniyxon” dostoni, ilmiy-nazariy qarashlar, tarixiy shaxslar, Shayboniyxon obrazni.

FOLK EPIC “SHAIBONIKHAN”

ABSTRACT

The article describes the historical epic "Shaibankhan" in Uzbek folklore, the role of the epic in our history, the views of scholars who conducted research, and the image of Shaibankhan.

Keywords: Folklore, the epic "Shaibankhan", scientific and theoretical views, historical figures, the image of Shaibankhan.

НАРОДНЫЙ ЭПОС “ШАЙБАНИХАН”

АННОТАЦИЯ

В статье описывается исторический эпос «Шайбанихан» в узбекском фольклоре, место эпоса в нашей истории, взгляды ученых, проводивших исследования, образ Шайбанихана.

Ключевые слова: фольклор, эпос «Шейбанихан», научно-теоретические взгляды, исторические личности, образ Шейбанихана.

KIRISH

O‘zbek xalq og‘zaki ijodining ma’lum qismini tarixiy dostonlar tashkil etadi. Bu dostonlar yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalab, tariximizni bilishda muhim omil hisoblanadi.

Yurtimiz istiqlolga erishgach, o‘zbek folklorshunosligida xalq ijodiyotini yangicha tafakkur va milliy mafkura asosida yangidan o‘rganish boshlandi. Ayniqsa, xalqimiz tarixiy va madaniy o‘tmishida nom qoldirgan yirik shaxslar haqida yaratilgan folklor asarlarini qaytadan tadqiq etish o‘zbek folklorshunosligining dolzarb masalasiga aylandi. Bu jihatdan, Bobur va Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslar obrazi asosida yaratilgan “Shayboniyxon” va “Oychinor” dostonlari e’tiborga loyiqlikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Millatimiz madaniyati va davlatchiligimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Bobur va Shayboniyxon nomlari o‘z davridan hozirga qadar mif, afsona va rivoyatlar, doston-u qo‘sishqlar, hatto ertaklarda yashab kelmoqda. “Shayboniyxon” dostoni va uning tarixiylik darajasi, kompozitsion-badiiy xususiyatlari haqida dastlabki ilmiy qarashlarni atoqli folklorshunoslardan H.T.Zarifov, V.M.Jirmunskiyalar ilgari surishgan [1,140-147].

N.Mallayev “O‘zbek adabiyoti tarixi”da ilk bor dostonning birinchi qismi mazmunini qisqacha bayon etib bergan. S. Asqarov “Xalq dostoni “Shayboniyxon” haqida” maqolasida doston to‘g‘risda mulohaza yuritib, uning kuyluvchisi Po‘lkan shoirni “Xalqimizning kurash tarixini birinchi bor doston qilib aytgan iste’dodli baxshi sifatida “Shayboniyxon” dostonini yaratdi”, – deb ulug‘lashga harakat qiladi va bu bilan dostonning an’naviy ijrochilikka xosligini inkor etadi [3,11].

“Shayboniyxon” dostonini Po‘lkan shoir yaratmagani, balki uni ustozni Jassoq baxshidan o‘rgangani haqida T.Mirzayev shunday yozadi: “Shayboniyxon” dostoni XVII asrda, ashtarkoniylarning hokimiyat tepasiga kelishidan ancha oldin yaratgan va davom etayotgan ko‘p asrlik muntazam epik an’ana doirasida bizgacha yetib kelgan [2,96]. O‘zbekistonda “Shayboniyxon” dostoni ilk bor Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoirdan yozib olinib, 1928-yilda G‘ozzi Olim Yunusov tahriri ostida chop etilgan.

“Shayboniyxon” dostonida XV-XVI asrlarda xalq boshidan o‘tgan eng og‘ir damlar, jang-u jadallar, toj-u taxt uchun olib borilgan kurashlar mohiyati hamda Bobur va Shayboniyxon o‘rtasida kechgan ziddiyatli munosbatlar yoritilgan.

“Shayboniyxon” dostonida shoir Shayboniyxon ijobi, Boburmirzo esa salbiy obraz sifatida gavdalantiriladi. Ammo shunisi xarakterlik, bir qator tarixiy voqealarni hisobga olmaganda, har ikkala obraz ham tarixiy prototiplar bilan bog‘lanmaydi. Shuningdek, ularning shaxsiga aloqador o‘rinlar uchramaydi. Buning shoirning dunyoqarashi, saviyasi ma’lum doira ichida cheklanib qolgani bilan izohlash kerak. Buning asosiy sababi shoir tarixiy voqealarni yaxshi bilmaganligidan aniqlab olishimiz mumkin.

Badiiy yozma adabiyotda Shayboniyxon Abdulmo'minxon o'g'li nomi bilan bog'liq ikkita "Shayboniynoma" asari ham mavjud. Bu dostonlar XVI asrda yashab ijod etgan Muhammad Solih va tarixchi Kamoliddin Binoiylar sanaladi.

Bu asarlar ko'proq hujjat va qasida xarakteriga ega bo'lib, unda Shayboniyxonning hukmdorlik faoliyati madh etiladi, "Sohibi taxt" sifatidagi buyuk ishlari tasvirlanadi va unga hamd-u sanolar o'qiladi. Lekin ikkinchi asarda esa o'zbek xoni Shayboniyxonning xalq boshiga azob-uqubatlar solib, uni ayovsiz talagan, qirg'in qilganligi va qonxo'r podsholardan biri sifatida ko'rsatiladi.

"Shayboniyxon" dostoni bir-birini mazmunan boyituvchi ikki mustaqil sujetdan tashkil topgan. Asarning birinchi qismi bevosita Shayboniyxon faoliyati bilan bog'liq sarguzashtlarga bag'ishlanadi. Ikkinchi qismda esa Shayboniyxon zamonida sodir bo'lgan Xurshidoy ismli qiz nomi bilan bog'liq voqealar tasvirlanadi. Xurshidoy sarguzashtlari ko'proq ertak xarakteriga ega bo'lib, "Ozodachehra" o'zbek xalq ertagini eslatadi. Dostonning bu qismi 1965-yilda alohida kitob holida nashr qilingan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, dostonning birinchi qismida Markaziy Osiyonи zabt etish maqsadida yurishlar qilgan Shayboniyxon nomi bilan bog'liq bo'lgan voqeahodisalar aks ettirilgan. Dostonning debocha qismidayoq asarda faol ishtirop etuvchi qahramonlarning nomlari keltiriladi, ularning fe'l atvori, kasb-kori to'g'risida ma'lumot beriladi.

"Shayboniyxon" dostonida xalq ertaklari motivlaridan ham unumli foydalanilgan. Masalan, dostonda quvg'inda yurgan Shayvalixon Sirdaryo bo'yidagi to'qayzordan o'tayotganida, yo'lida duch kelgan ayiq bilan epik qahramonlarga xos jasurlik, botirlik, shijoat bilan jang qilishi, ayiq ustidan g'alaba qozonib, uning terisini shilib, uni orqasiga yopishi, ayiq boshining terisidan esa oyog'iga choruq qilib kiyishi aks etgan. Bu orqali Shayboniyxon obrazi boshqa xalq qahramonlari kabi epiklashtirilgan. Chunki an'anaviy qahramonning biror vahshiy jonzot bilan yakkama-yakka olishib, uni mahv etishi, so'ngra terisini shilib olib undan kiyim yoki tasma qilishi tasvirlanashi, maishiy ertaklarning sujetida uchraydi. Jumladan, "Uch og'ayni botirlar" ertagida to'ng'ich botir birinchi kecha sherni yengib undan tasma olgani, o'rtancha botir esa ikkinchi kecha ajdarni yengishi va undan beliga tasma olgani tasvirlanadi.

MUHOKAMA

Asarda Shayvalixon (Shayboniyxon)ga doim Xizr yoki ilohiy kuchlar madadkor bo'ladi. Asar voqealari rivoji davomida Shayboniyxon xarakteriga yorqin xususiyatlar – mardlik, bahodirlik va insoniylik, aql-idroklik kabi fazilatlar ochiladi.

Shayboniyxonning Samarcandga qilgan yurishining asl ijtimoiy mohiyati u o'zi quvg'in bo'lgan shaharga lashkar tortib borib, haqiqat va adolatni tiklash, raqiblaridan

o‘ch olish, hokimiyatni o‘z qo‘liga olishgina emas, balki tashqi davlatlar bilan savdo-sotiqni yaxshi yo‘lga qo‘yish, xalq faravonligini oshirishdan, eng muhimi yagona markazga ega bo‘lgan sivilizatsiyalashgan o‘zbeklar davlatini barpo qilishdan iboratdir. Bu ijtimoiy g‘oya asar kompozitsiyasiga mahorat bilan singdirilib yuborilgan va butun voqea-hodisalar mana shu g‘oyaga bo‘ysundirilgan holda rivojlantirila boradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, asarda Shayboniyxonni o‘zbek, qozoq, no‘g‘ay xalqlarini birlashtirib, Markaziy Osiyoda markazlashgan yagona bir mamlakat bunyod etish uchun kurashga shaylangan mohir lashkarboshi, siyosiy yo‘lboshchi sifatida ko‘ramiz. Shuningdek, dostonda Shayvali – tarixiy Shayboniyxon dostoni poetikasi qonuniyatları asosida, ayniqsa, sehrli va maishiy ertaklarning qahramonlariga xos tasvirlar asosida epik personajga aylantirib tasvirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Masharipova Z. O‘zbek xalq og’zaki ijodi – Toshkent:Mumtoz so‘z, 2008. – B.140-147.
2. Mirzayev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Toshkent:Fan, 1979 – B.96.
3. Asqarov S.Xalq dostoni “Shayboniyxon” haqida. – Toshkent:Adabiy meros, 1977. №8. – B.11-15.
4. Po‘lkan shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob. – Toshkent:Fan, 1976. – B.230.